

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

## REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 2-sон

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



# MUNDARIJA

## 12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

## 12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

## 12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 6 **КАРАХОДЖАЕВА ДИЛОРОМ  
МАМИРОВНА**  
А.И. Ишанов – выдающийся узбекский  
ученый-государствовед

- 13 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**  
Конституционализм и наука конституционного  
права: некоторые задачи и перспективы  
развития
- 24 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK  
ALISHER O'G'LI**  
**QODIROVA DILDORA IRKINOVNA**  
Xorijiy investitsiya tushunchasining  
nazariy-huquqiy jihatlari

- 30 **XODJAYEV BAXSHILLO KAMOLOVICH**  
Intellectual mulk huquqini boshqarish va  
texnologiyalar transferini davlat tomonidan  
qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy  
masalalari
- 38 **XO'JAYEV SHOXJAXON AKMALJON O'G'LI**  
Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya  
qilishning o'ziga xos jihatlari
- 49 **SAYDIVALIYEVA XURSHIDA  
XODJIAKBAROVNA**  
Xorijiy davlatlarda oilaviy munosabatlarni  
tartibga solishning o'ziga xos jihatlari va  
oilaviy-huquqiy shartnomalar

**12.00.06 – TABIIY RESURSLAR  
HUQUQI.  
AGRAR HUQUQ.  
EKOLOGIK HUQUQ**

- 61 **МУРОДЖНОВА МОХИРАХОН  
МАКСУДЖОН КИЗИ**  
**ИМАМОВА ДИЛФУЗА ИСМАИЛОВНА**  
Понятие международного договора  
строительного подряда
- 70 **USMONOVA MUNISXON YO`LDOSH QIZI**  
Muomala layoqatidagi nuqsonlar va uni  
aniqlashdagi muammolar
- 81 **ASADOV SHAHRIDDIN FAKHRIDDIN UGLI**  
Legal regulation of consulting services

**12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIKLARNING  
OLDINI OLISH.  
KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI**

- 90 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**  
O'zbekistonda vodorod energetikasi sohasi  
qonunchiligini takomillashtirishning ayrim  
masalalari
- 97 **ХАЙТОВ ПАНЖИ БУХАРОВИЧ**  
Роль и значение объектов и субъектов  
в энергетической безопасности
- 106 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**  
Janubiy Afrika Respublikasi jinoyat  
qonunchiligidagi jazoni yengillashtirish instituti

**12.00.09 – JINOYAT  
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI**

- 122 **UMARXONOV AZIZXON  
SHARIPXONOVICH**  
Sud bosqichlarida jinoyat protsessi  
ishtiropchilarining xavfsizligini ta'minlash  
asoslari

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.2./YBIV5039>  
UDC: 347.965(045)(575.1)

## XORIJY INVESTITSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI

**Yuldasbekov Avazbek Alisher o'g'li,**

TDYU tayanch doktoranti

ORCID: 0000-0001-6132-1383

e-mail: yuldasbekov94@mail.ru

**Qodirova Dildora Irkinovna,**

TDYU qoshidagi akademik litsey

katta o'qituvchisi

ORCID: 0000-0002-7810-899X

e-mail: dildorakadirova@mail.ru

**Annotatsiya.** Bozor iqtisodiyoti bosqichida xorijiy investitsiya va investorlarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning faoliyatiga oid normativ hujjatlarni takomillashtirish va istiqbollarini belgilash ayni damdagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Davlatimiz tomonidan yakdillik bilan ijtimoiy-iqtisodiy yo'naliishlarda olib borilayotgan islohotlar o'zining ijobjiy natijalarini bermoqda. Hozirda yurtimizda chet el korxonalari va xorijiy investitsiya ishtirokidagi qo'shma korxonalar xo'jalik faoliyatini olib borar ekan, birinchi o'rinda ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladigan qonunlarning qabul qilinishi hamda buning natijasida investitsion oshkorralik ta'minlanganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu sohada olib borilayotgan islohotlarga qaramasdan, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, chet el investorlarining o'z faoliyatini to'laqonli amalga oshirishi uchun barcha huquqlarga ega emasligi, ularni amalga oshirish mexanizmning maksimal darajada ishlab chiqilmaganligi hamda muayyan to'siqlarning, jumladan, qonunchilikda bo'shliqlar mavjudligi ushbu sohani yanada rivojlantirish zarurligidan dalolat beradi. Mazkur maqolada aynan "xorijiy investitsiya" tushunchasining milliy qonunchiligidizda izohlanishi va ushbu tushunchaga nisbatan olimlarning munosabatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** soliq qonunchiligi, xorijiy investor, chet el investitsiyasi, investitsiya natijadorligi, rag'batlantirish, samaradorlik, mexanizm.

### ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ПОНЯТИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ

**Юлдошбеков Авазбек Алишер угли,**

докторант Ташкентского государственного  
юридического университета

**Кадырова Дилдора Иркиновна,**

старший преподаватель академического лицея  
при Ташкентском государственном  
юридическом университете

**Аннотация.** Защита прав иностранных инвестиций и инвесторов, совершенствование нормативно-правовых документов по их регистрации и определение перспектив в условиях рыночной экономики является одной из актуальных задач современности. Последовательно

проводимые нашим государством реформы в социальной и экономической сферах дают свои положительные результаты. Сегодня, когда в нашей республике осуществляют деятельность иностранные предприятия и совместные предприятия с иностранными инвестициями, мы можем наблюдать, что прежде всего приняты законы, защищающие их права и интересы, и за счет этого обеспечена инвестиционная прозрачность. Несмотря на проводимые реформы, анализ показывает, что иностранные инвесторы не обладают полными правами на осуществление своей деятельности, недостаточно разработан механизм их реализации, а наличие определенных препятствий, в том числе противоречащих норм в законодательстве, свидетельствует о необходимости исследовать эту область. В данной статье также анализируется трактовка понятия «иностранные инвестиции» с учетом национального законодательства и отношения ученых к этому определению.

**Ключевые слова:** инвестиции, налог, иностранный инвестор, иностранные инвестиции, инвестиционная деятельность, стимул, механизм, эффективность.

## THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF THE CONCEPT OF FOREIGN INVESTMENTS

**Yuldashbekov Avazbek Alisherovich,**  
Doctoral Student of Tashkent State University of Law

**Kadyrova Dildora Irkinovna,**  
Academic Lyceum at Tashkent State University of Law,  
Senior Lecturer

**Abstract.** Protection of the rights of foreign investments and investors, improvement of legal documents for their registration, and determination of prospects in a market economy are one of the urgent tasks of our time. The reforms consistently carried out by our state in the social and economic spheres are yielding positive results. Today, when foreign enterprises and joint ventures with foreign investments operate in our republic, we can observe that, first of all, laws have been adopted that protect their rights and interests, and due to this, investment transparency has been ensured. Despite the ongoing reforms, the analysis shows that foreign investors do not have full rights to carry out their activities, the mechanism for their implementation is not sufficiently developed, and the presence of certain obstacles, including conflicting norms in the legislation, indicates the need to explore this area. This article analyzes the interpretation of the concept of "foreign investment" in our national legislation and the attitude of scientists toward this concept.

**Keywords:** investment, tax, foreign investor, foreign investment, investment activity, incentive, mechanism, efficiency.

### Kirish

Bugungi kunda yurtimizda investitsiya faoliyatini va xorijiy investorlarning haq-huquqlari hamda manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonun va qonunosti hujjalari mavjud. Investorlarga berilgan imtiyozlarning nimalardan iborat ekanligi haqidagi savol har bir chet ellik investorni o'ylantirishi tabiiy.

Xususan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha chet el investitsiyalari va kreditlar hisobiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar yillar hisobida olib qaralganda, 2018-yilda 24,3 foizni, 2019-yilda 43,6 foizni, 2020-yilda 42,7 foizni va 2021-yilda 42,3 foizni tashkil etganini hamda 2020-2021-yillarda o'zlashtirilgan investitsiyalarning koefitsiyenti tushganini ko'rishimiz mumkin.

## Material va metodlar

Ma'muriy va soliq huquqida xorijiy investitsiya tushunchasi, ta'rifi va olimlarning uning qo'llanishi bilan bog'liq munosabatlari hamda normativ-huquqiy hujjatlarda egallagan o'rni tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Tadqiqot olib borishda ilmiy bilishning tizimli-tarkibiy yondashuv, analiz va sintez, mantiqiy-yuridik, formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy hamda statistik metodlardan foydalanildi.

## Tadqiqot natijalari

Avvalambor, "Xorijiy investor kim?" va "Xorijiy investitsiya qanday ma'noni anglatadi?" degan savolga javob berar ekanmiz, ada-biyotlarda "investitsiya" tushunchasi bilan bog'liq biron-bir aniq va yakdil pozitsiyaning mavjud emasligi sababli uning mazmuni va shakli olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. "Investitsiya – avvalambor, moddiy mablag' aylanmasining bir ko'rinishidir", – deya A.V. Mayfat o'zining monografiyasida ta'kidlab o'tgan [1].

Olimlar U.F. Sharp, G.D. Aleksandr, Dj. Beylilarining qarashlariga ko'ra, investitsiya o'zining quyidagi uchta shartli xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1) investitsiyaning kiritilishi va undan foyda olinishi o'rtasidagi muddatning mavjudligi;

2) investitsiyadan mukofot (daromad) olishning kafolatlanmaganligi;

3) daromad qiymatining noaniqligi [2].

Investitsiya (lotincha "investio" so'zidan olingen bo'lib, "kiyinaman" degan ma'noni anglatadi) amalda har qanday lug'atda mamlakat ichkarisida va xorijda iqtisodiyot tarmoqlariga kapital qo'yish sifatida talqin qilinadi [3]. Shu tariqa mazkur tushunchalarning milliy qonunchiligidagi qisqa-chasharini keltirib o'tish lozim.

Shu jumladan, chop etilgan ayrim rus ada-biyotlarida "Investitsiya pul mablag'larining sarfi hisoblanib, undan daromadni iste'molga emas, balki kelgusidagi yuqoriyoq foyda yoki ijtimoiy samara olishdan iborat bo'lgan bar-

cha ijtimoiy yoki yakka kapitalni takror hosil qilish maqsadida foydalilanadi", – deb ta'kidlanadi.

Ayrim manbalarda ishlab chiqarish, biznesni rivojlantirish, foya ko'rish yoki boshqa natijalar olish maqsadlarida turli tarmoqlar, investitsiya loyihibariga moddiy, mulkiy va intellektual ne'matlar qo'yilmalarining barcha turlari investitsiyalar deb nomланади [4].

Yuqoridagi mualliflarning ta'kidlashicha, investitsiyalar ishlab chiqarishni kengaytirishga yoki uni yangilashga, ya'ni mavjud kapitalni ko'paytirishga sarf qilingan resurslar hisoblanadi.

Lekin shuni ham qayd etish kerakki, investitsiyalar nafaqat real kapitalni ko'paytirishga sarf qilinadigan resurslardir, balki ushbu resurslar moddiy va nomoddiy aktivlarga, qimmatli qog'ozlar xaridiga ham sarflanadi. Investitsiyalar kelgusida foya ko'rish maqsadida iqtisodiy resurslarni uzoq muddatga ishlatish deb ham tushunladi [5]. Ya'ni mablag'ni kapitalizatsiyalash va turli jamg'armalarni yaratish maqsadida pirovard natijaga yetishgacha moliyaviy resurslarni band qilish investitsiyalar deb nomланади [6].

Yurtimiz olimlarining fikricha, investitsiya – mulkiy shaklidan qat'i nazar, tavakkalchilik asosida faoliyat olib borayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy foya olish ilinjida o'z ixtiyoridagi moliyaviy, mulkiy va intellektual boyliklari ni qonuniy asosdagi har qanday tadbirkorlik obyektiga kiritishdir [7].

Bir qancha olimlar investitsiyalar deb kapitalni qayta ishlab chiqishga, uni saqlab turishga hamda kengaytirish uchun sarflangan moddiy mablag'larni tushunadi. Shunga yaqin bo'lgan tushunchani o'zbekistonlik olimlar ham qo'llab-quvvatlaydilar. Xususan, D. Gozibekovning ta'kidlashicha, investitsiyalar umuman kapitalning hozirgi qiymatini saqlash va (yoki) ushbu qiymatning jamg'armalarini ko'paytirish maqsadlarida kapitalga aylantirish vaqtida bo'ladi. Shuning uchun

ham ular shu vaqt davomida iste'mol qilinmaydi va belgilangan muddatga konkret obyekt va jarayonlarga biriktiriladi, ularda band etiladi, bunda ular kutilgan va kutilmagan xatarlarga duch keladi” [8].

Fikrimizcha, yuqorida ta'kidlangan mualliflarning investitsiya tushunchasiga bergen ta'riflari hozirgi davrga va bozor iqtisodiyoti sharoitiga to'liq mos keladi. Barcha ta'riflar investitsiya tushunchasining nazariy-huquqiy mazmunini ochib bera olgan. Lekin professor A. Ulmasovning qayd etishicha, investitsiyalar faqatgina ishlab chiqarish sohasiga kiritiladigan mablag'larnigina inobatga oladi. Bunda, o'z navbatida, investitsiyalar ning ajralmas qismi hisoblangan qimmatli qog'ozlar va intellektual investitsiyalar e'tibordan chetda qolib ketadi [9].

Shu bilan bir qatorda, iqtisodchi olim F. Goziyevning ta'riflashicha, investitsiyaning barcha ko'rinishlari inobatga olingan. Ammo ushbu ta'rifa investitsiya faqatgina tadbirkorlik faoliyatidagi obyektlar uchun barcha turdag'i mulkiy, moliyaviy va intellektual ashyolarni hisoblaydi [10].

V. Zaysevning fikriga ko'ra, investitsiyalar – investorlar tomonidan o'z manfaatlari yo'li-da tegishli faoliyat turiga yo'naltiriladigan va moddiy ko'rinishda ifodalanadigan har qanday fuqarolik huquqlari obyektidir [11].

Fikrimizcha, investitsiya ko'p qirrali faoliyat bo'lib, u zaxirada bo'lgan moliyaviy manbalarni kelgusida moddiy va moliyaviy boylikni yaratuvchi (ishlab chiqaruvchi) obyektlarga yo'naltirishni, mulk va hududlarni boshqarishni anglatadi.

Yuqoridagilardan farqli ravishda normativ-huquqiy hujjatlarga murojaat etar ekan-miz, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida”gi O'RQ-598-soni Qonuniga asosan, “investor”, “chet el investitsiyalar” va “chet ellik investorlar” kabi tushunchalar quyidagicha ta'riflangan.

Unga ko'ra, investor foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga o'zin-

ing mablag'larini va (yoki) qarz mablag'larini yoxud jalb etilgan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qiluvchi investitsiya faoliyati subyekti hisoblanadi. Shuningdek, “chet el investitsiyalar” tushunchasi ham atroficha yoritilgan bo'lib, u chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan, intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, reinvestitsiyalardan iboratdir. Xususan, “chet ellik investorlar” deganda chet davlatlar, chet davlatlarning ma'muriy yoki hududiy organlari, davlatlar o'rtasidagi bitimlarga yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tuzilgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyekti bo'lgan xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatadigan yuridik shaxslar, har qanday boshqa shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar, chet davlat fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashaydigan fuqaroligi bo'limgan shaxslar tushuniladi [12].

Keyingi unchalik muhim bo'limgan, investitsiyalar mazmunini aniqlashtiradigan ta'rif investitsiya faoliyatidir.

Investitsiya faoliyati — investitsiya faoliyatiga aloqador shaxslarning investitsiyalarini harakatlantirish bilan bog'liq xatti-harakatlari yig'indisidir [13].

Quyida biz investitsiya faoliyatining amalga oshirilishi shakllarini ko'rishimiz mumkin:

- yuridik shaxslarni tashkil etgan holda yoki ularning ustav fondlarida ulushlar orqali ishtiroy etish, shuningdek, mol-mulkini yoxud aksiyalarini olish;

- qimmatli qog'ozlar, shu bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasining rezidentlari emissiya qilgan qarz majburiyatlarini sotib olish;

- konsessiyalarini, shuningdek, tabiiy resurslarni izlash, ishlab chiqarish, qazib olish yoki ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan konsessiyalarini olish;

- mult huquqini, shuningdek, ularning joylashgan yer uchastkalari bo'yicha savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlariga, turar joyga bo'lgan mult huquqini, shu jumladan, yerga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish hamda ulardan foydalanish (ijara asosida foydalanish) huquqini qonuniy asoslarda olish;
- qonun hujjatlari qarshi bo'lмаган boshqa ko'rinishlarda.

Har qanday mol-mulk, shu jumladan, xalq xo'jaligining barcha sohalaridagi asosiy fondlar va aylanma mablag'lar, qimmatli qog'ozlar, maqsadli pul qo'yilmalari, ilmiy texnika ishlanmalari, intellektual boyliklar, boshqa mulkiy predmetlar hamda mulkiy huquqlar investitsion faoliyatining obyekti sifatida e'tirof etilishi mumkin [14].

Barpo etilishi va realizatsiya qilinishi normativ hujjatlarda qayd etilgan sanitariya-gigiyena, radiatsiya, ekologiya, arxitektura-shaharsozlik qoidalari va boshqa talablariga to'g'ri kelmaydigan, yuridik va jismoniy shaxslarning haq-huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga putur yetkazuvchi obyektlarga investitsiya kiritish man qilinadi [15].

Quyidagi ro'yxitda investitsiya faoliyatining subyektlari (investorlar va ishtirokchilar) bo'lishlari mumkin bo'lgan shaxslar keltirilgan [16]:

- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari – fuqarolari (jismoniy shaxslari), yuridik shaxslari;
- mahalliy davlat hokimiyyati organlari va davlat boshqaruvi organlari;
- xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet ellik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, shuningdek, fuqaroligi bo'lмаган shaxslar va O'zbekiston Respublikasining chet elda domiy yashovchi fuqarolari;
- hamkorlik asosida investitsion faoliyatni yuritayotgan jismoniy va shaxslar, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va davlatlar.

### Tadqiqot natijalari tahlili

Investorlar normativ hujjatlarga asosan buyurtmachi (mablag' kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi (xaridor) bo'lishlari, shu bilan birga, investitsiya faoliyati ishtirokchisining vazifasini bajaruvchi bo'lishlari ham mumkin. Investitsiya faoliyati ishtirokchilari va investor o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosida investorning buyurtmasini bajaruvchi bo'lishi mumkin [17].

Investitsiyalar, asl ma'nosida, iqtisodiyotning kengaytirilgan ishlab chiqarish sur'atlari va ko'lamenti yuksaltirishga, ilmiy texnika taraqqiyotini kengaytirishga va aholi bandligini ta'minlashga ulkan hissa qo'shamdi. Shu boisdan iqtisodiyotdagi mavjud institutsional o'zgarishlar, ishlab chiqaruvchi kuchlarning ratsional joylashtirilishi hamda rivojlanishi, boshqa omillar bilan birga respublikada mavjud investitsiya siyosatiga bog'liq bo'ladi [18].

Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo qilish, mavjud asosiy fondlar unumdoorligini oshirish va ishlab chiqaruvchi kuchlarning modernizatsiyasiga asoslangan holda sifatli va raqobatga bardosh bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqaruvini ta'minlaydigan davlat investitsiya siyosatining eng oliy maqsadir.

Davlatimiz iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash loyi-halarini amalga oshirishga investitsiyalarni jalb qilish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar alohida e'tiborga sazovordir.

### Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, milliy iqtisodiyotimizga chet el investitsiyalari ishtirokida tashkil topgan korxonalarni jalb etishning dolzarb masalalari ko'p qirrali bo'lib, ularning ijobjiy hal bo'lishi mamlakatning iqtisodiy jihatdan barqarorligini, mamlakatning investitsiya salohiyatini yuksaltirish hamda aholining turmush tarzini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Soliq mexanizmidagi o'zgarishlar talab va taklifning o'zgarishiga ta'sir qili-

shi barobarida investitsiyalar o'zgarishi-ga ham ta'sir qiladi. Boshqa jihatdan olib qaralganda, soliq va investitsiya o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Soliqlar asosida yangitdan yaratilgan qiymatning davlat va soliq to'lovchilar orasida taqsimlanishi soliq va investitsiyalar o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlaydi. Soliqlar yo'nalishida yengilliklar berilishi ko'p tomondan soliq to'lovchilarning ishlab chiqarishga bo'lgan rag'batini oshiradi, ularda ishlab chiq-

rishni yanada kengaytirish, yangi texnika va texnologiyalar joriy qilinishga moyilli-gini kuchaytiradi. Shu o'rinda aytish joizki, soliqlar vositasida investitsiyalar rag'batlantirilishi kelgusida davlat budgetiga undirilishi rejalashtiriladigan soliq bazasining kengayishiga olib keladi. Iqtisodiy islo-hotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishda soliq imtiyozlarining odilona belgilanishi, ulardan to'g'ri va samarali foydalanish muhim hisoblanadi.

## REFERENCES

1. Mayfat A.V. Grazhdansko-pravovyye konstruktsii investirovaniya [Civil law structures of investment]. Moscow, 2006, p. 20.
2. Sharp U.F., Aleksandr G.D., Beyli Dj. Investitsii [Investments]. Moscow, 2001, p. 37.
3. Sovetskiy entsiklopedicheskiy slovar [Soviet encyclopedic dictionary]. Moscow, Soviet Encyclopedia, 1979.
4. Blank I.A. Investitsionnyy menedzhment [Investment management]. Elga Nika-Center Publ., 2001, p. 448.
5. Kravchenko N.A., Markova V.D. Investitsionnaya politika predpriyatiy [Investment policy of enterprises]. ECO, 1994, no. 7.
6. Uzbekistan 2013 [Almanac Uzbekistan 2013]. Tashkent, Center for Economic Research, 2013, p. 242.
7. Tumusov F.S. Investitsionnyy potentsial regiona [Investment potential of the region]. Moscow, Economics, 1999, p. 13.
8. G'ozibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari [Problems of investment financing]. Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2002, p. 24.
9. Zolotogorov V.G. Investitsionnoye proektirovaniye [Investment design]. Minsk, 1998.
10. World investment report 2020. Available at: [https://unctad.org/system/files/official-document/wir2020\\_overview\\_ru.pdf/](https://unctad.org/system/files/official-document/wir2020_overview_ru.pdf/) (accessed 20.02.2021).
11. Zaytsev V.V., Khudyakov D.N. Investitsionnyy potentsial regiona: metodika otsenki [Investment potential of the region: assessment methodology]. *Economics and Management*, 2013, no. 1 (33), pp. 19–24.
12. Bozorov A.A. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarini soliqqa tortish xususiyatlari [Features of taxation of enterprises with foreign investments in Uzbekistan]. *Economy and innovative technologies*, 2016, September-October, no. 5.
13. Combacau J., Sur S. Droit international public [Public International Law]. Paris, 2001, p. 312.
14. Dupuy P.M. L'unité de l'ordre juridique international [The unity of the international legal order]. Collection of courses of the Academy of international law. *The Hague*, 2002, vol. 297, pp. 105–118.
15. Gesetz über Kapitalanlagegesellschaften [Law on capital investment companies]. 1970, January 14.
16. Schwarzenberger G. The Principles and Standards of International Economic Law. *The Hague*, 1981.
17. Sornarajah M. The International Law on Foreign Investment. London, 1994, p. 283.
18. Franck S.D. The Legitimacy Crisis in Investment Treaty Arbitration: Privatizing Public International Law Through Inconsistent Decisions. *Fordham Law Review*, 2005, vol. 73.
19. Salmon J. Dictionnaire de droit international public [Dictionary of public international law]. Brussels, 2001, p. 820.

# **YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI**

## **ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК**

## **REVIEW OF LAW SCIENCES**

**Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal**

**Правовой научно-практический журнал**

**Legal scientific-practical journal**

**2023-yil 2-son**

**VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023**

**DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.**

**BOSH MUHARRIR:**

**Rustambekov Islambek Rustambekovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d., professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d., dotsent

**Mas'ul muharrir:** O. Choriyev

**Muharrirlar:** Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,

Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

**Musahih:** M. Patillaryeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1385.

Jurnal 26.06.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 17,7 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 36.

TDYU tipografiyasida chop etildi.